

SHASHMAQOMDAGI NASRLAR ICHKI STRUKTURALARI

Karimov Muslimbek

Buxoro davlat universiteti

*Musiqa ijrochiligi va
madaniyat kafedrasi*


12-I vokal 20 guruh talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqola Shashmaqomning “Nasr” bo’limi xususida bo’lib, uning ritmik jihatni va milliy musiqa madaniyatimizda uning tutgan o’rni haqida bo’ladi. Undan tashqari “nasr” ning turli maqom sho’balarida qo’llanilishi xususida ham bo’ladi.

Аннотация: Эта статья посвящена разделу Шашмакома “наср” и будет посвящена его ритмическому аспекту и его роли в нашей национальной музыкальной культуре. Кроме того, использование слова «наср» в различных макомах ветвях будет особенным.

Annotation: This article is devoted to the section of the nasr Shashmakom and will be devoted to its rhythmic aspect and its role in our national musical culture. In addition, the use of the word "nasr" in various branches will be special.

«Nasr» doira usuli ham murakkab ko‘rinishga ega bo‘lsa-da, ma’lum qadar tantanavor yangraydi:

Har bir Nasr sho’bali

 mustaqil ashula
 yo’llaridir. Ularning ko’pchiligidagi taronalar mavjud bo’lsa-da, Ayrim Nasr
 sho’balarida, Jumladan Navro’zi sabo, Husayniylar, Nasri Segoh va Nasri Uzzolda
 taronalar uchramaydi. Taronalar Nasr yo’llarida bittadan to’rttagacha bo’lishi
 mumkin.

Nasrlarning taronalari ham Saraxbor va Talqin taronalari tartibida ishlangan va
 ulardagi kabi funksiyani bajaradi. Nasrlarning taronalari ko’pincha $\frac{3}{4}$, $\frac{4}{4}$, vs $\frac{3}{4}$ $\frac{4}{4}$
 ba’zan esa $\frac{3}{4}$ / bir marta va $\frac{2}{4}$ besh marta qaytariladigan juda murakkab takt- ritm
 o’lchovida keladi. Nasrlarning taronalari ham yoqimli va yengil ashula
 yo’llaridandir.

Nasrlarning taronalari orasida xalq o’rtasida mashxr bo’lgan juda ko’p ashula
 yo’llari uchraydi. Bularning ichida xarakterli bo’lgan ba’zi taronalarni misol
 keltirish bilan kifoyalanamiz.

Nasri Ushshoqning I-II taronasini olaylik. Bu taronalar o’zbek xalq musiqasi V tomi va Tojikiston variantlarida ba’zi tafovutlar bilan berilgan “O’zbek xalq musiqasi”da (V tom) I tarona shunday boshlanadi:




Tojikiston variant esa shu melodic tuzilmaning boshlanishida tovushlar yirikroq holda berilib, kuy o’z harakatida beshinchi taktdan boshlab oktavaga emas, sekstaga ko’tarilib, so’ng pastga qaytadi.



Bunday hol xofizlarning ma’lum bir ashula yo’lini turlicha ijro etib kelganligining oqibatidir. Bu esa o’z navbatida bir ashulaning turli variantlarini paydo bo’lishiga, uning ijro etilishida qulaylik doirasini kengayishiga olib keladi

Nasri Ushshoq I-II taronalarining xalq variantlari ko’plab uchraydi. Bunda og’irroq doira usulida ijro etiladigan “Ey sabo” ashulasini ko’rsatib o’tish lozim.

“Ey sabo” ashulasining boshlanishi Nasri Ushshoqning I taronasidan olib ishlanib, avjida esa Avji Turk foydalanilgan. Nasri Ushshoqning I-II taronalari asosida Xorazmda “Hanuz” ashulasi yuzaga kelgan.



Yuqorida keltirilgan taronalar asosida kompozitor Tolibjon Sodikov “Gulsara” operasining I pardasidagi Qodir ariyasini yaratgan edi. Bu ajoyib ariya “Sog’inib” deb boshlanadi va qahramonning ichki tuyg’ularini muvaffaqiyat bilan ochib bera olgan. Shuningdek, Nasri Bayotning taronasi asosida Toshkent, Farg’onada

mashxur bo'lgan Bayot II yaratilgandir. Bunga o'xshash misollarni ko'plab keltirish mumkin

Shunday qilib, Nasr yo'llarining taronalari Shashmaqomning katta qismin tashkil etadi. Ular jozibali, orombaxsh ashula yo'llaridir.

Nasrlarda aruzning asosan «Hazaji musammani solim» she'riy vazni keng o'rin tutadi. Misol sifatida, Shashmaqomning «Buzruk» turkumidagi «Nasrulloyi» sho'basini tahliliy nazardan o'tkazamiz. Xususan, «Nasrulloyi» sho'basi ma'lum qadar hazin, lekin botinan rivojlanish quvvatiga ega cholg'u kuy (muqaddima) bilan boshlanadi. Quyi pardalardan sadolana boshlagan ushbu kuyda yonmayon joylashgan tovushlarning tejamkorlik bilan to'lqinsimon tarzda o'zaro mantiqiy ulanib kelishi va pog'onama-pog'ona maqsadli yuksalib borishi tinglovchiga dastlabki tug'yonli huzurni hadya etadi. Shundan so'ng maqomdon hofizning ovoz tarovati va ishq dardining ifodasi bo'lgan nolali honishi o'laroq bu holat yangi sifat bosqichiga yuksaladi.

Shuni ta'kidlash joizki, «Nasr» sho'balarida aruzning «*Hazaji musammani solim*» she'riy vazni qo'llanishi qat'iy qonun kuchiga ega emas. Zero, mazkur sho'balarda aruzning boshqa bahrlari ham qo'llanib turiladiki, bunga, masalan, Shashmaqomning «Segoh» turkumida kelgan «Navro'zi Ajam» namunasini misol keltirish mumkin. Mazkur sho'ba (maqom ashula yo'li), Buxoro an'anasi ko'ra, hofizlar tomonidan forsiy va turkiy g'azallar asosida «o'qilib» kelingan. Shu jumladan, Bedilning «Ramali musammani mahzuf» (Foilotun – foilotun – foilotun – foilun) aruz bahrida bitilgan:

*«Tobi zulfat partavand az u ba tarifi oftob,
Xatti mushkinat shikast az u ba harfi oftob»,*
bayti bilan boshlanuvchi g'azali asosida ham o'qilgan.

Shashmaqomning «Rost» turkumida kelgan «Nasri Ushshoq» sho'basida ham «Hazaji musammani solim» bahri unumli qo'llangan:

*Mafoiylun – mafoiylun – mafoiylun – mafoiylun
Tun oqshom keldi kulbam sori ul gulruh shitob aylab,*

Xiromi sur'atidin gul uza xaydin gulob aylab.

Nasri ushshoq

I хат

Тун ок - шом кел - ди кул - бам со - ри
ул гул-рух ши - тоб ай - лаб, (чолғу нақароти) хи
ро - ми сурь - а - ти - дингул у - зо хай - дин гу-
лоб ай - лаб (чолғу нақароти) Че - киб муж - го - ни

II хат

Maqom turkumlaridan tashqari «Ushshoq» pardasi va kuy ando'zasi asosida sozanda va hofiz bastakorlar tomonidan o'nlab nazira («Samarqand Ushshog'i», «Qo'qon Ushshog'i», «Toshkent Ushshog'i» va b.) namunalari ijodiy ishlanganligining guvohi bo'la miz. Xususan, milliy musiqamiz darg'alari – Hoji Abdulaziz Rasulovning «Samarqand Ushshog'i» (Zebuniso g'azali)da «Ushshoq» kuyi «Uzzol» kuyiga ulanib kelsa, Mulla To'ychi Toshmuhammedov nazirasi – «Toshkent Ushshog'i» (Navoiy g'azali) bevosita «Ushshoq» parda-ohanglariga tayanadi. Sodirxon Bobosharifov ning ijod namunasi bo'lgan «Sodirxon Ushshog'i» (Jomiy g'azali) esa, katta ashula ta'siri o'laroq qo'qqisidan avj parda lari ni «zabt» etish bilan boshlanadi. Har biri betakror badiiy qiymatli mazkur asarlar o'z ijodkorlari tomonidan yuksak mahorat bilan ijro etilganligi bilan ham hofizlik san'atining alohida maktablarini namoyon etadi